| Qashqadaryo viloyatida barqaror turizmning rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolar tahlili.....                                          | 432 |
| <b>Suyunova Dilnoza Mexridin qizi</b>                                                                                                           |     |
| Iqtisodiy rivojlanish jarayonida investitsion resurslarning mutanosib taqsimlanishi: samaradorlik va ustuvor yo'nalishlar.....                  | 436 |
| <b>Otaboyev Feruzbek Oybek o'g'li</b>                                                                                                           |     |
| Xususi banklar faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning moliya bozoriga ta'siri .....                                            | 441 |
| <b>Abduqahhorov Asilbek Ahror o'g'li</b>                                                                                                        |     |
| Mehnat resurslari tushunchasi, tarkibi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....                                                               | 447 |
| <b>Kobilova Zebo Bobokulovna</b>                                                                                                                |     |
| Xorijiy davlatlar tajribasida moliyaviy siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli.....                                       | 453 |
| <b>Jabborova Dilafruz</b>                                                                                                                       |     |



# XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA MOLIYAVIY SIYOSATNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI

Jabborova Dilafruz

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Email: [dilafruz.jabborova2107@gmail.com](mailto:dilafruz.jabborova2107@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola xorijiy davlatlar tajribasi asosida moliyaviy siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda moliyaviy siyosatning nazariy asoslari va amaliy jihatlari izchil yoritilib, uning iqtisodiy tizim barqarorligi, davlat budjeti muvozanati, inflyatsiya darajasini nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi roli ilmiy nuqtai nazardan baholangan. Shuningdek, maqolada fiskal siyosat, soliq siyosati, davlat qarzi siyosati, pul-kredit siyosati bilan uyg'unlik, investitsion va innovatsion siyosat, shuningdek, ijtimoiy moliyaviy siyosatning muhim tamoyillari chuqur tahlil qilingan. Xorijiy mamlakatlar amaliyotiga tayangan holda, fiskal intizomni ta'minlash, budjet defitsitini maqbullashtirish, davlat qarzini samarali boshqarish va investitsion oqimlarni jalb etishda moliyaviy siyosatning hal qiluvchi o'rni ilmiy asoslangan. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston sharoitida makroiqtisodiy siyosatni takomillashtirish uchun nazariy hamda amaliy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy siyosat, fiskal siyosat, soliq siyosati, davlat qarzi, makroiqtisodiy barqarorlik, budjet defitsiti, fiskal intizom, xalqaro tajriba, investitsion siyosat, ijtimoiy barqarorlik.

**Abstract:** This article analyzes the role of financial policy in ensuring macroeconomic stability based on the experience of foreign countries. The study systematically explores both the theoretical foundations and practical aspects of financial policy, highlighting its importance in maintaining the stability of the economic system, balancing the state budget, controlling inflation, and stimulating economic growth. Furthermore, the article provides an in-depth examination of the main directions of financial policy — fiscal policy, tax policy, public debt management, coordination with monetary policy, investment and innovation policies, as well as social financial policy. The international experience demonstrates that financial policy plays a decisive role in maintaining fiscal discipline, optimizing budget deficits, effectively managing public debt, and attracting investment flows. These findings can serve as a theoretical and practical basis for improving macroeconomic policy in the context of Uzbekistan.

**Key words:** financial policy, fiscal policy, tax policy, public debt, macroeconomic stability, budget deficit, fiscal discipline, international experience, investment policy, social stability.

**Аннотация:** Данная статья посвящена анализу роли финансовой политики в обеспечении макроэкономической стабильности на основе опыта зарубежных стран. В исследовании системно освещены теоретические основы и практические аспекты финансовой политики, а также ее значение в обеспечении устойчивости экономической системы, балансировании государственного бюджета, контроле уровня инфляции и стимулировании экономического роста. Кроме того, в статье подробно изучаются основные направления финансовой политики — фискальная, налоговая, долговая политика, согласованность с денежно-кредитной политикой, инвестиционная и инновационная политика, а также социальная финансовая политика. Опыт зарубежных стран показывает, что финансовая политика играет ключевую роль в обеспечении фискальной дисциплины, оптимизации бюджетного дефицита, эффективном управлении государственным долгом и привлечении инвестиционных потоков. Полученные выводы могут послужить теоретической и практической основой для совершенствования макроэкономической политики в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** финансовая политика, фискальная политика, налоговая политика, государственный долг, макроэкономическая стабильность, дефицит бюджета, фискальная дисциплина, международный опыт, инвестиционная политика, социальная стабильность.



## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida moliyaviy siyosatni takomillashtirish, fiskal intizomni mustahkamlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi [1] PF-158-son Farmonida 2025–2030-yillarga mo'ljallangan jamoat moliyaviy boshqaruv islohotlariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu yo'nalishda 5 ta asosiy ustuvor yo'nalish, 16 ta maqsad va 45 ta aniq chora-tadbir belgilangan bo'lib, ular asosan quyidagilarga qaratilgan:

- budget intizomini kuchaytirish;
- o'rta muddatli budget rejalashtirishni strategik yo'naltirish;
- davlat xarajatlari va investitsiyalar samaradorligini oshirish;
- budget ijrosi sifatini ta'minlash;
- fiskal hisobot va shaffoflikni yaxshilash.

Strategiyada ko'rsatib o'tilgan maqsadlardan biri YalMni ikki barobarga oshirib, 2030-yilga qadar yuqori o'rta daromadli davlatlar qatoriga chiqishdir. Buning uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash zarur. Strategiyaning iqtisodiy tarkibida korxonalar va investitsiyalarni rag'batlantirish, iqtisodiyotni liberallashtirish va raqobatbardosh muhitni yaratish kabi chora-tadbirlar asosiy o'rinni egallaydi. Bular moliyaviy barqarorlik uchun zamin yaratadi. Strategiyada iqtisodiy o'sish va YalMni oshirish bilan birga, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish muhim o'rin tutadi. "Social Protection Single Registry" orqali ijtimoiy yordam oluvchilar soni 2022-yilga kelib sezilarli oshgani bu yo'nalishdagi yondashuvning samaradorligini ko'rsatadi.

Moliyaviy siyosatning ta'sir doirasi keng bo'lib, u fiskal intizomni ta'minlash, soliq siyosatini takomillashtirish, davlat qarzini samarali boshqarish, investitsion va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Jahon amaliyotida Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, AQSh, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlar moliyaviy siyosat vositalaridan samarali foydalanib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va tashqi tahdidlarga bardosh berishda sezilarli yutuqlarga erishgan. Masalan, Germaniya "qarz tormozi" mexanizmi orqali budget intizomini kuchaytirgan [2], Skandinaviya mamlakatlari yuqori soliqlar evaziga ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga erishgan [3], Janubiy Koreya esa davlat moliyasini innovatsion rivojlanishga yo'naltirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlagan [4].

Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy o'sishning muayyan davrlarida yuzaga keladigan fiskal beqarorlik, budget defitsiti, davlat qarzi yukining ortishi, inflyatsiya va tashqi iqtisodiy shoklar kabi omillarni bartaraf etishda moliyaviy siyosat vositalarining muvofiqlashtirilgan qo'llanilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajribani chuqur tahlil qilish O'zbekiston sharoitida ham moliyaviy siyosatni takomillashtirish, budget defitsitini maqbul darajada ushlab turish, davlat qarzini barqaror boshqarish, soliq bazasini kengaytirish va fiskal intizomni kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu tariqa, moliyaviy siyosat nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlovchi strategik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Emi Nakamura va Jon Steinsson[5] zamonaviy makroiqtisodiyotda fiskal siyosat samaradorligini o'rgangan yetakchi tadqiqotchilar sirasiga kiradi. Ularning izlanishlari, xususan, AQSh shtatlari misolida amalga oshirilgan tadqiqotlarda pul-ittifoq sharoitida fiskal rag'batlarning ta'siri empirik jihatdan baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, fiskal multiplikator o'rtacha 1,5 atrofida bo'lib, davlat xarajatlari iqtisodiy faollikni sezilarli darajada kengaytirishi mumkinligi ko'rsatib berilgan.

Ben S. Bernanke va Olivier J. Blanchardning[6] 2023-yilda e'lon qilingan ilmiy tadqiqotida 2021–2023 yillardagi AQSh va rivojlangan davlatlardagi inflyatsiya jarayonlari chuqur tahlil qilindi. Ular empirik ma'lumotlarga asoslanib, pandemiya davrida inflyatsiyaning shakllanishida asosiy omil sifatida umumiy talabning haddan tashqari kengayishi emas, balki sektoral taklif cheklovlari, global ta'minot zanjiridagi uzilishlar va iste'mol talabining xizmatlardan tovarlarga siljishi muhim rol o'ynaganini ko'rsatdilar.

Lars P. Feld [7] tomonidan olib borilgan tadqiqot Germaniyada 2009-yilda konstitutsiyaga kiritilgan "qarz tormozi" (Schuldenbremse) mexanizmining fiskal barqarorlikdagi rolini tahlil qiladi. Demak, "qarz tormozi" Germaniyada nafaqat qarzning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlagan, balki inqiroz sharoitida zarba yutuvchi institut sifatida ham samarali faoliyat ko'rsatgan.

Donghyun Park [8] va hammualliflar (Osiyo Taraqqiyot Banki-ADB) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Osiyo mamlakatlarida fiskal siyosatning iqtisodiy o'sish va makrobarqarorlikka ta'siri tizimli tahlil qilingan. Mualliflarning fikricha, mintaqada umumiy soliq tushumlari va davlat xarajatlari nisbatan past bo'lsa-da, fiskal siyosatning tarkibiy yo'naltirilishi o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



Evsey Gurvichning [9] ilmiy tadqiqotlari Rossiya iqtisodiyoti misolida sanksiyalar sharoitida fiskal siyosat barqarorligi va budget qoidalarining samaradorligini tahlil qiladi. Chunki qoida asosida ortiqcha resurslar jamg'arilib, ularni inqiroz davrida ishlatish imkoniyati yaratiladi.

## TADQIQOT METADOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot xorijiy davlatlar tajribasida moliyaviy siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini tahlil qilishga qaratilgan. Birinchidan, tadqiqot usullari sifatida taqqoslash, tahlil va sintez yondashuvlari qo'llaniladi. Ikkinchidan, manbalar bazasi sifatida xalqaro tashkilotlarning (IMF, Jahon banki, OECD) statistik ma'lumotlari, rasmiy davlat hujjatlari, strategiyalar va ilmiy maqolalardan foydalaniladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy davlatlar tajribasi asosida moliyaviy siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini o'rganish, ushbu siyosatning turli ko'rinishlari va ularning natijalarini tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan fiskal qoidalar, soliq-budget mexanizmlari, qarz boshqaruvi va ijtimoiy xarajatlar siyosati turlicha bo'lsa-da, ularning barchasi barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Shu bois, tahlil va natijalar qismida eng rivojlangan davlatlarning amaliyoti solishtirma yondashuv asosida ko'rib chiqilib, ularning umumiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi.

AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy siyosatning barqarorlikdagi asosiy kuchi uning avtomatik stabilizatorlari va inqiroz davridagi tezkor moslashuvchanligida namoyon bo'ladi[10]. Federal va shtat darajasida soliq tizimi hamda transfer to'lovlari iqtisodiy sikl tebranishlarini yumshatib turadi: daromad solig'ining progressivligi va ijtimoiy nafaqalar iqtisodiy pasayish davrida avtomatik tarzda qo'llab-quvvatlash mexanizmi vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, AQSh hukumatining inqiroz davridagi fiskal rag'bat paketlari va Federal Rezerv bilan yaqin koordinatsiyasi moliya bozorida ishonchni tiklashga va qarz bozorini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli istiqbolda esa fiskal siyosatning maqsadi defitsit va qarz trayektoriyasini nazoratda ushlab turishga qaratiladi, bu esa moliyaviy intizomni ta'minlaydi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Avtomatik stabilizatorlarni kuchaytirish daromad solig'ini qisman progressivlashtirish, ishsizlik nafaqasi va boshqa transferlarni takomillashtirish orqali iqtisodiy sikl tebranishlariga moslashuvchanlikni oshirish.

Fiskal-monetar siyosat uyg'unligini ta'minlash inqiroz davrida Markaziy bank va Moliya vazirligi o'rtasida yanada yaqin koordinatsiyani kuchaytirish, qarz bozorini rivojlantirish orqali davlat qarzini xavfsiz moliyalashtirish.

O'rta muddatli fiskal ramkani joriy etish budget defitsiti va davlat qarzigacha nisbatan qat'iy chegaralar belgilash, fiskal intizomni mustahkamlash.

Sektorlar bo'yicha maqsadli qo'llab-quvvatlash inqiroz davrida strategik tarmoqlarga subsidiya va investitsiya mexanizmlarini qo'llash orqali umumiy barqarorlikni mustahkamlash.

Umuman olganda, AQSh tajribasi O'zbekiston uchun moliyaviy siyosatni avtomatik, institutsional va barqaror mexanizmlar orqali shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Shu yo'l bilan fiskal siyosat nafaqat joriy sharoitga moslashuvchi, balki uzoq muddatda ham makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Germaniya tajribasi xalqaro miqyosda fiskal intizom va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning samarali institutsional modeli sifatida e'tirof etiladi. 2009-yilda mamlakat konstitutsiyasiga kiritilgan "qarz tormozi" (Schuldenbremse) mexanizmi davlat moliyasini tartibga solishda tub burilish yasab, fiskal siyosatni qoidaga asoslangan yondashuvga yo'naltirdi[11]. Ushbu mexanizmning asosiy mohiyati federal budget uchun strukturaviy taqchillikni yalpi ichki mahsulotning 0,35 foizi bilan cheklash hamda yerlar (Länder) uchun yangi qarz olishni odatiy sharoitda taqiqlashdan iboratdir. Bunday qat'iy me'yorlar fiskal intizomni kuchaytirish, davlat qarzining nazorat ostida bo'lishini ta'minlash va iqtisodiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, "qarz tormozi" odatiy davrlarda davlat qarzining qisqarishiga yordam bergan, inqiroz sharoitida esa escape clause mexanizmi orqali moslashuvchanlik yaratib, zarbani yumshatuvchi institut sifatida faoliyat ko'rsatgan. Natijada qoida bir vaqtning o'zida qat'iy intizom va iqtisodiy zarbalarga qarshi barqarorlashtiruvchi rolni bajarishga qodir bo'lgan. Bu Germaniyada fiskal siyosatning kredibilitetini mustahkamlash, foiz xarajatlarini nazoratda ushlab va pro-siklik fiskal harakatlarning oldini olish imkonini berdi.

O'zbekiston tajribasida esa davlat qarzi uchun maksimal nisbat belgilangan bo'lsa-da, fiskal siyosat asosan defitsitni qo'lda boshqarish va darajaviy chegaralar bilan cheklangan. Strukturaviy balansga asoslangan mexanizm, avtomatik stabilizatorlarni qo'llash va favqulodda holatlar uchun aniq muammodan chiqish tizimi yetarlicha rivojlanmagan. Bu esa fiskal siyosatning moslashuvchanligi cheklaydi.

Shu bois O'zbekiston uchun Germaniya tajribasidan kelib chiqib quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, davlat budgetini strukturaviy balans asosida boshqarish qoidasini joriy etish



va defitsitni qat'iy chegaralar bilan cheklash zarur; ikkinchidan, favqulodda vaziyatlarda qoidadan vaqtincha chetlanish imkonini beruvchi escape clause mexanizmini ishlab chiqish hamda keyinchalik qarzni qaytarish jadvalini belgilash lozim; uchinchidan, fiskal siyosat samaradorligini oshirish maqsadida mustaqil fiskal kengash tashkil etib, qoida ijrosini nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir; to'rtinchidan, yuqori daromad yillarida ortiqcha tushumlarni jamg'arib, iqtisodiy pasayish davrida ularni stabilizatsion vosita sifatida qo'llash zarur; beshinchidan, ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda "oltin qoida" tamoyilidan foydalanish, ya'ni faqat iqtisodiy samaradorligi yuqori loyihalarga qarz mablag'larini yo'naltirish talab etiladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, Germaniya tajribasi fiskal intizomni qat'iy nazorat ostiga olish bilan birga, shoklarga moslashuvchan mexanizmlar orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. O'zbekiston uchun ushbu modelni moslashtirish davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlash, qarz trayektoriyasini xavfsiz chegarada ushlab va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashning muhim omili bo'lishi mumkin.

1-jadval. Xorijiy davlatlar moliyaviy siyosati tajribasi

| Mamlakat              | Asosiy yondashuv                                               | Asosiy mexanizmlar                                                                 | Afzalliklari                                                              | Kamchiliklari                                            | O'zbekiston uchun saboqlar                                                              |
|-----------------------|----------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>AQSh</b>           | Avtomatik stabilizatorlar va tezkor fiskal-monetar uyg'unlik   | Progressiv soliqlar, transfer to'lovlari, Federal Rezerv bilan koordinatsiya       | Iqtisodiy sikllarni yumshatadi, moliya bozorida ishonchni tiklaydi        | Uzoq muddatda qarz yukining ortishi xavfi                | Avtomatik stabilizatorlarni kuchaytirish, fiskal-monetar koordinatsiyani rivojlantirish |
| <b>Germaniya</b>      | "Qarz tormozi" qoidasi va fiskal intizom                       | Konstitutsiyaviy cheklovlar, strukturaviy balans, escape clause                    | Davlat qarzini nazorat ostida ushlab turadi, iqtisodiy ishonchni oshiradi | Qat'iy cheklovlar moslashuvchanlikni kamaytirishi mumkin | Strukturaviy balans asosida budjet boshqaruvi va escape clause joriy etish              |
| <b>Shvetsiya</b>      | Nordik modeli – yuqori soliqlar evaziga kuchli ijtimoiy himoya | Progressiv soliqlar, transfer to'lovlari, xarajat qoidasiga asoslangan siyosat     | Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, inson kapitalini rivojlantiradi       | Yuqori soliqlar iqtisodiy rag'batni pasaytirishi mumkin  | Progressiv soliqlar va mustaqil fiskal kengashni joriy etish                            |
| <b>Janubiy Koreya</b> | Innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan kontr-siklik siyosat  | R&D qo'llab-quvvatlash, o'rta muddatli fiskal ramka, sektorlarni maqsadli qo'llash | Innovatsion transformatsiyani tezlashtiradi, raqobatbardoshlikni oshiradi | Davlat xarajatlari katta bo'lishi fiskal yukni oshiradi  | Innovatsion tarmoqlarni maqsadli qo'llash va o'rta muddatli fiskal ramkani kuchaytirish |

Taqdim etilgan jadval xorijiy davlatlarning moliyaviy siyosat tajribalarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Har bir mamlakat o'ziga xos mexanizmlar va yondashuvlarga ega bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy siyosatning asosiy kuchi avtomatik stabilizatorlar, progressiv soliqlar va transfer to'lovlari orqali iqtisodiy sikllarni yumshatishda namoyon bo'ladi. Bu esa inqiroz davrida tezkor fiskal va monetar choralarni uyg'unlashtirishga imkon yaratadi. Biroq uzoq muddatda davlat qarzi yukining ortishi muammo sifatida yuzaga chiqishi mumkin. O'zbekiston uchun saboq — avtomatik stabilizatorlarni kuchaytirish va fiskal-monetar uyg'unlikni rivojlantirishdir.

Germaniya moliyaviy siyosatda "qarz tormozi" qoidasi orqali qat'iy fiskal intizomni joriy qilgan. Bu davlat qarzini nazorat ostida ushlab turish va iqtisodiy ishonchni mustahkamlash imkonini bergan. Shu bilan birga, qattiq cheklovlar moslashuvchanlikni pasaytirishi mumkin. O'zbekiston uchun bu modeldan olinadigan asosiy saboq — strukturaviy balans asosida budjet boshqaruvini yo'lga qo'yish va favqulodda vaziyatlarda escape clause mexanizmidan foydalanishdir.

Shvetsiya modeli yuqori soliqlar evaziga kuchli ijtimoiy himoya va barqaror fiskal siyosatni ta'minlashga qaratilgan. Progressiv soliqlar va transfer mexanizmlari iqtisodiy tebranishlarni yumshatadi, inson kapitaliga yo'naltirilgan xarajatlari esa uzoq muddatli raqobatbardoshlikni oshiradi. Shu bilan birga, yuqori soliqlar iqtisodiy rag'batni pasaytirishi mumkin. O'zbekiston uchun saboq — soliqlarni progressivlashtirish, fiskal siyosatning shaffofligini mustaqil kengash orqali kuchaytirish va inson kapitaliga ustuvor e'tibor qaratishdir.



Janubiy Koreya moliyaviy siyosatni innovatsion rivojlanishga yo'naltirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga erishgan. R&D, yuqori texnologiyalar va strategik tarmoqlarni qo'llash orqali mamlakat uzoq muddatli raqobatbardoshlikka erishmoqda. Biroq katta davlat xarajatlari fiskal yukni oshirishi mumkin. O'zbekiston uchun saboq — innovatsion tarmoqlarni maqsadli qo'llab-quvvatlash va o'rta muddatli fiskal ramkani kuchaytirishdir.

O'zbekiston uchun eng maqbul yondashuv ushbu ikki modelni uyg'unlashtirgan holda, fiskal intizomni kuchaytirish bilan birga avtomatik stabilizatorlar va innovatsion sektorlarni qo'llab-quvvatlovchi gibril strategiyani ishlab chiqishdir.

Shuningdek, Shvetsiya fiskal siyosati xalqaro amaliyotda Nordik modeli sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uning markazida yuqori soliqlar evaziga kuchli ijtimoiy himoya va avtomatik stabilizatorlar mavjud. Soliq tizimining progressiv xarakteri, keng ko'lamli transfer to'lovlari va ijtimoiy dasturlar iqtisodiy sikl tebranishlarini yumshatadi, talabning keskin pasayishini oldini oladi hamda barqarorlikni ta'minlaydi. Budget siyosati o'rta muddatli istiqbolda xarajat qoidasiga asoslanib, davlat xarajatlari potentsial YalM o'sishi va inflyatsiya ko'rsatkichlariga moslashtiriladi. Mustaqil Fiskal siyosat kengashi fiskal intizom va shaffoflikni nazorat qilib, siyosiy qarorlarning iqtisodiy barqarorlik talablariga mosligini baholaydi[12]. Shu bilan birga, Shvetsiya budjeti ta'lim, sog'liqni saqlash va innovatsiyaga katta hajmda mablag' yo'naltiradi, bu esa inson kapitali va iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini oshiradi[13].

O'zbekiston bilan solishtirganda, fiskal siyosat ijtimoiy xarajatlarning katta ulushini tashkil etsa-da, soliqlarning progressivligi zaif, avtomatik stabilizatorlar esa cheklangan. Budget intizomi asosan defitsit chegaralari orqali ta'minlanadi, xarajat qoidasiga asoslangan tizim shakllanmagan, mustaqil fiskal kengash esa mavjud emas. Natijada fiskal siyosatning kredibiliteti va shaffofligi yetarli darajada mustahkam emas.

O'zbekiston uchun Shvetsiya tajribasidan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, soliqlarni progressivlashtirish orqali avtomatik stabilizatorlarning samaradorligini kuchaytirish; ikkinchidan, o'rta muddatli xarajat qoidasini joriy etish va uni potentsial o'sish bilan uyg'unlashtirish; uchinchidan, mustaqil fiskal kengash yoki audit kengashini tashkil etish orqali fiskal siyosatning shaffofligi va kredibilitetini oshirish; to'rtinchidan, inson kapitaliga yo'naltirilgan xarajatlarni ko'paytirish, ta'lim va innovatsion loyihalarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash.

Shvetsiya modeli fiskal siyosatning nafaqat makrobarqarorlikni ta'minlovchi, balki uzoq muddatli sifatli o'sishni qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida ishlashini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun ushbu tajribani moslashtirish fiskal siyosatni qoidaga asoslangan, shaffof va ijtimoiy yo'naltirilgan tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

Janubiy Koreya fiskal siyosati zamonaviy iqtisodiyotlarda innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan moliyaviy strategiyaning samarali namunasidir. Mamlakat budjeti asosan tadqiqot va ishlanmalar (R&D), yuqori texnologiyali tarmoqlar va innovatsion sanoat siyosatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Shu orqali fiskal siyosat nafaqat qisqa muddatli barqarorlashtirish vazifasini bajaradi, balki uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ham mustahkamlaydi. Janubiy Koreya moliyaviy boshqaruvda kontr-siklik yondashuvni qo'llab, iqtisodiy pasayish davrida davlat xarajatlarni oshiradi, o'sish bosqichida esa konsolidatsiyaga e'tibor qaratadi. Bunda o'rta muddatli fiskal ramka (Medium-Term Fiscal Framework) va qarzni xavfsiz darajada boshqarish tizimi muhim rol o'ynaydi.

Koreya tajribasining yana bir muhim jihati inqiroz davrida tezkor va maqsadli sektor qo'llovidir. Masalan, 1997-yil Osiyo moliyaviy inqirozida, 2008-yil global moliyaviy inqirozida va 2020-yil pandemiya davrida davlat budjeti yarimo'tkazgichlar, avtomobilsozlik va raqamli texnologiyalar kabi strategik tarmoqlarni qo'llashga yo'naltirildi. Bu yondashuv orqali Koreya fiskal siyosati nafaqat barqarorlashtiruvchi, balki tarkibiy transformatsiyani tezlashtiruvchi vosita sifatida ham samarali ishladi[14].

Umuman olganda, Janubiy Koreya tajribasi fiskal siyosatning barqarorlik va innovatsion rivojlanish o'rtasida muvozanatni ta'minlash imkonini berishini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun ushbu modelni moslashtirish iqtisodiy tizimni nafaqat qisqa muddatda barqarorlashtirish, balki uzoq muddatda raqobatbardosh va innovatsion rivojlanishga olib chiqish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, fiskal siyosat makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ikki tomonlama vazifani bajaradi: bir tomondan, davlat qarzi va defitsit ustidan qat'iy nazorat o'rnatish orqali moliyaviy intizomni kuchaytiradi, ikkinchi tomondan, iqtisodiy zarbalarga qarshi moslashuvchan choralar orqali barqarorlashtiruvchi rol o'ynaydi. AQSh, Germaniya, Shvetsiya va Janubiy Koreya misollarida fiskal qoidalar, avtomatik stabilizatorlar, kontr-siklik siyosat va innovatsion xarajalar uyg'unligida samarali natijalar kuzatilgan. Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun ham fiskal siyosatni institutsional asoslarda takomillashtirish va iqtisodiy o'sishni sifatli va barqaror yo'nalishda ta'minlashda muhim nazariy-amaliy saboqlar beradi.



O'rganishlar natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi. Jumladan, AQSh tajribasi fiskal siyosatda avtomatik stabilizatorlarning samaradorligini ko'rsatadi: progressiv soliqlar va ijtimoiy transferlar iqtisodiy pasayish davrida avtomatik tarzda talabni qo'llab-quvvatlaydi. Germaniya "qarz tormozi" modeli fiskal intizom va shoklarga moslashuvchanlikni uyg'unlashtirgan mexanizm sifatida qarz trayektoriyasini barqaror ushlab turishga xizmat qilmoqda. Shvetsiya modeli yuqori soliqlar evaziga ijtimoiy himoya va inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlashga imkon bermoqda. Janubiy Koreya tajribasi fiskal siyosatning innovatsion rivojlanish va tarkibiy transformatsiya vositasi sifatida ishlashini ko'rsatib, strategik tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashda davlatning faol rolini namoyon etdi. Umuman, xorijiy tajribalar fiskal siyosatning samaradorligi faqat qarzni cheklash bilan emas, balki siyosatning tarkibiy sifati, avtomatik stabilizatorlar, o'rta muddatli rejalashtirish va mustaqil nazorat institutlari orqali ta'minlanishini ko'rsatmoqda. Asosiy takliflar esa quyidagilardan iborat. Jumladan, avtomatik stabilizatorlarni kuchaytirish. Daromad solig'ini qisman progressivlashtirish va ishsizlik nafaqasini kengaytirish orqali iqtisodiy pasayish davrida talabni qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish. Bu AQSh modelidan olinadigan asosiy saboq bo'lib, O'zbekistonda siklga moslashuvchanlikni kuchaytiradi. Strukturaviy balans qoidasini joriy etish. Germaniya tajribasidan kelib chiqib, budjet defitsiti uchun strukturaviy balans indikatorlariga asoslangan qat'iy cheklovlar belgilash, shu orqali fiskal intizomni mustahkamlash va qarz trayektoriyasini xavfsiz chegarada ushlab turish. Mustaqil fiskal kengash tashkil etish. Shvetsiya amaliyotiga tayangan holda, fiskal siyosatning shaffofligini ta'minlaydigan va siyosiy tsikl ta'sirini kamaytiradigan mustaqil nazorat institutini tashkil etish. Bu fiskal siyosatning kredibilitetini oshiradi. Innovatsion va strategik tarmoqlarga yo'naltirilgan budjet siyosati. Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib, ilmiy-tadqiqot, raqamli texnologiyalar, energetika va yuqori qo'shilgan qiymatli sanoatni qo'llab-quvvatlashga maxsus budjet liniyalari ajratish. Bu O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

O'rta muddatli fiskal ramkani joriy etish. Yevropa davlatlari tajribasidan kelib chiqib, fiskal siyosatni faqat yillik budjet bilan cheklamasdan, kamida 3-5 yillik istiqbolda xarajatlar va daromadlar uchun aniq qoidalar belgilash. Bu barqarorlikni oshiradi va fiskal siyosatni oldindan bashorat qilinadigan qiladi. Ushbu takliflarni amalga oshirish O'zbekistonda fiskal siyosatning samaradorligini oshirib, uni nafaqat qisqa muddatda iqtisodiy zarbalarga qarshi vosita, balki uzoq muddatda barqaror o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlovchi mexanizm sifatida shakllantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs>
2. The German Debt Brake – Anchor of Stability or Blocker of Investments? <https://www.ifo.de/en/facts/2023-12-08/german-debt-brake-anchor-stability-or-blocker-investments>
3. Scandinavia's Social Model: Lessons From a High-Tax, High-Welfare Success Story. <https://www.thefridaytimes.com/28-May-2025/scandinavia-s-social-model-lessons-from-a-high-tax-high-welfare-success-story>
4. Korea to Announce National Strategy to Become a Technology Hegemon. <https://www.msit.go.kr/eng/bbs/view.do?mld=4&bbsSeqNo=42&nttSeqNo=746>
5. Nakamura, E., & Steinsson, J. (2014). Fiscal Stimulus in a Monetary Union: Evidence from U.S. Regions. *American Economic Review*, 104(3), 753–792. <https://doi.org/10.1257/aer.104.3.753>
6. Bernanke, B. S., & Blanchard, O. J. (2023). What Caused the U.S. Pandemic-Era Inflation? *Brookings Papers on Economic Activity*, 54(2), 1–107. <https://doi.org/10.1353/eca.2023.0005>
7. Feld, L. P., Reuter, W. H., & Baskaran, T. (2020). Fiscal Rules in Germany: Stabilizing or Constraining? *German Economic Review*, 21(2), 153–177. <https://doi.org/10.1111/geer.12197>
8. Park, D., & Lee, J.-W. (2019). Fiscal Policy for Growth and Development in Asia. *Asian Development Bank Economics Working Paper Series*, No. 589. <https://doi.org/10.22617/WPS190195-2>
9. Gurvich, E., & Prilepskiy, I. (2015). The Impact of Financial Sanctions on the Russian Economy. *Russian Journal of Economics*, 1(4), 359–385. <https://doi.org/10.1016/j.ruje.2016.02.002>
10. Auerbach, A. J., & Gale, W. G. (2020). Fiscal Policy in the Age of COVID: Does It Get in the Way of Monetary Policy? *Brookings Papers on Economic Activity*, 51(2), 1–45. <https://doi.org/10.1353/eca.2020.0015>
11. Calmfors, L., & Wren-Lewis, S. (2011). What Should Fiscal Councils Do? *Economic Policy*, 26(68), 649–695. <https://doi.org/10.1111/j.1468-0327.2011.00271.x>
12. Swedish Fiscal Policy Council. (2022). Report of the Swedish Fiscal Policy Council 2022. Stockholm: Ministry of Finance. <https://fpr.se/download/18.62f57e5b18149f9a5aa4f9/1654072362139/2022-fiscal-policy-report.pdf>
13. Park, D., & Lee, J.-W. (2019). Fiscal Policy for Growth and Development in Asia. *Asian Development Bank Economics Working Paper Series*, No. 589. <https://doi.org/10.22617/WPS190195-2>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---